

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 11 - fevral

49-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022-yil 22-avgustdagi 01/19-3860-sonli xati hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoni, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022-yil 22-avgustdagi 01/19-3860-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nukus davlat o'rmon xo'jaligining tasarrufida bo'lgan Nukus tumani hududidagi 2,0 gektar yer maydonlari Nukus tumani hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) Nukus tumani hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritsin va davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**